

DAVLAT QARZINING MOHIYATI VA UNI BOSHQARISH CHORALARI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8432755>

Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o'g'li

Toshkent moliya instituti o'qituvchisi

Komilova Shaxnoza Komiljon qizi

Toshkent moliya instituti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada davlat qarzining mazmun-mohiyati, uning kelib chiqish sabablari, eng yuqori chegarasi hamda salbiy tomonlari yoritib o'tilgan. Mamlakatda davlat qarzidan oqilona foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar

davlat qarzi, ichki qarz, tashqi qarz, yalpi ichki mahsulot.

Аннотация

В этой статье рассматривается сущность государственного долга, причины его возникновения, его верхний предел, а также его отрицательные стороны. Даны рекомендации по рациональному использованию государственного долга в стране.

Ключевые слова

государственный долг, внутренний долг, внешний долг, Валовой внутренний продукт

Abstract

This article covers the essence of public debt, the reasons for its origin, the highest limit and the negative aspects. Recommendations have been made for the rational use of public debt in the country.

Key words

public debt, domestic debt, external debt, gross domestic product

Davlat qarzining kelib chiqish sabablari, uning oshib yoki kamayib borishi har bir davlatning iqtisodiy siyosati, islohotlar qamrovi va dinamikasi bilan uzviy bog'liqdir.

So'nggi yillarda dunyo mamlakatlarida tashqi qarzga bo'lgan talab nisbatan oshgani hamda davlatlar o'rtasida bu borada tafovutlar kuchayganligining bir qancha sabablari mavjud. Ulardan eng muhimlari jahon moliyaviy inqirozining kelib chiqishi, ayrim davlatlarda ijtimoiy muammolarning yomonlashuvi, iqtisodiy xavf-sizlik masalalari, iqtisodiy qudrat bilan ijtimoiy -talablar o'rtasidagi

nomutanosibliklar, moliyaviy manbalardan noo‘rin foydalanish natijasida byudjet taqchilligining oshib ketishi, favqulodda vaziyatlar, xususan, koronavirus pandemiyasi kabi omillar hisoblanadi

Dunyo mamlakatlaridagi vaziyatni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, davlat qarzi masalasini chetlab o‘tib, rivojlanishga erishgan mamlakatni topish qiyin. Odatda, davlat qarzi va uning dinamikasiga baho berilganda qarzning yalpi ichki mahsulotga (YAIM) nisbati o‘rganib chiqiladi. Ushbu ko‘rsatkichning yuqori chegarasi Mastroixt (1992-yil 7-fevralda Niderlandiyaning Mastroixt shahrida imzolangan) kelishuvi mezonlariga ko‘ra 60 foiz, Yevropa Ittifoqi va Xalqaro valyuta jamg‘armasining ko‘rsatmalariga muvofiq 50 foizdan ortmasligi tavsiya qilinadi. Agarda jahondagi tashqi qarz geografiyasiga nazar tashlasak, davlat qarzining nisbiy va absolyut qiymatlariga ko‘ra eng yuqori daraja AQSH, Yaponiya, va Yevropa Ittifoqi (YEI) mamlakatlariga hisobiga to‘g‘ri keladi. Ularning aksariyatida davlat tashqi qarzi YaIMga nisbatan 60 foizlik “qizil chiziq”dan allaqachon oshib o‘tgan, ba‘zilarida esa 100 foizdan ham ortiqqligini kuzatish mumkin. AQSH hamda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari qarzni ko‘proq tashqi bozorlardan olishni ma‘qul ko‘rsa, Yaponiya va ildam rivojlanayotgan mamlakatlar (Xitoy, Hindiston hamda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari) ichki bozordan olingan qarzlarning hisobiga iqtisodiyotning moliyaviy resurslarga bo‘lgan talabini qondiradi. Ushbu mamlakatlar iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan investitsiya mablag‘larining aksariyat qismi korporativ qarzlarning hissasiga to‘g‘ri keladi. Davlat tashqi qarzi “oldi-berdi” jarayoni jahon amaliyotida tkeng qo‘llanilib kelayotgan moliyaviy vositalardan bo‘lib qolayotganligiga qaramasdan mamlakat byudjeti kamomadini to‘ldirishda undan foydalanishning xavf-xatarlarini ham e‘tiborga olish lozim. Rivojlanayotgan davlatlar uchun tashqi qarz ulushining keskin ko‘tarilishi xalqaro moliyaviy tuzilmalarga nisbatan iqtisodiy va siyosiy qaramlikni keltirib chiqarishi yoki kuchaytirishi mumkin. Shuningdek, qarz miqdorining ko‘payishda davom etishi davlat tomonidan qarzlarni qaytarishda byudjet yukining ortib borishiga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, korporativ qarzlarning tashqi va ichki bozorlardan jalb qilinishi hamda samarasiz loyihalarga sarflanishi yoki makroiqtisodiy konyunkturaning (masalan, inflyatsiya darajasi, iqtisodiy o‘sish sur‘ati, milliy valyuta kurslari) keskin o‘zgarishi natijasida iqtisodiyotda salbiy holatlar yuzaga keladi.

Iqtisodiyot va Moliya vazirligining dastlabki hisob-kitoblariga ko‘ra, 2023-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasining davlat qarzi jami 29,2 mlrd. dollar ekvivalentiga yoki yalpi ichki mahsulotga nisbatan 36,4 foizga yetdi. Xususan, ushbu qarzlarning 25,9 mlrd. dollarga yoki YAIMga nisbatan 32,25 foizga teng

qismini davlat tashqi qarzi tashkil qiladi. Davlat qarzi, shu jumladan, tashqi qarz o'sishida kuzatilayotgan yuqori dinamikaga qaramasdan ushbu qarz miqdorlari xalqaro me'yorlarga ko'ra mamlakatimizda mo'tadil darajada saqlanib qoganligini xalqaro moliyaviy tashkilotlar ekspertlari ham e'tirof etmoqda. Ammo so'ngi 2-3 yil ichida O'zbekistonning davlat qarzi, jumladan, tashqi qarz nega bunchalik tez sur'atlarda o'sib ketganligi ko'pchilikni qiziqtirayotgani bejizmas. Bunday o'sish sur'atlarining bir qancha sabablari bor. Eng avval, keyingi to'rt yilda iqtisodiyot tarmoqlarida olib borilayotgan islohotlarning yangi darajaga chiqqanligi, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, valyuta operatsiyalarini erkin amalga oshirish imkonining yaratilganligi, tashqi savdoda eksport-import jarayoni shartlarining yengillashtirilishi va iqtisodiyotni liberallashtirishning boshqa bir qancha omillari evaziga yurtimizda tadbirkorlik hamda investitsiya faolligi keskin oshdi. Natijada iqtisodiyotning energetika mahsulotlari (gaz, neft, elektr energiyasi) shuningdek, transport xizmatlariga bo'lgan talab anchaginakuchaydi. Shu sababli ham keyingi uch yilda energetikaning neft va gaz, elektr energiyasi va transport sohalarida ishlab chiqarish infrastrukturasi rivojlantirish, modernizatsiya qilish hamda yangi quvvatlarni ishga tushirishga oid bir qancha loyihalar xalqaro moliya institutlari ko'magida amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, qishloq xo'jaligida bevosita davlat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlash, sohani modernizatsiya va diversifikatsiyalashga qaratilgan loyihalar ijrosi uchun ishlatilgan davlat tashqi qarzi mablag'lari 2,54 mlrd. AQSH dollari ekvivalentiga teng bo'ldi. Davlat tashqi qarzining 9.8 foiziga teng bu mablag'lar qishloq xo'jaligida sug'orish, agrotexnika, urug'chilik, seleksiya, yer unumdorligi va meliorativ holatini yaxshilash bilan bog'liq eng muhim loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga sarflanganini anglatadi.

Ichki imkoniyatlar cheklanganligi sababli 2022-yilning yakuni bo'yicha jami davlat tashqi qarzining 8,9 foizi yoki 2,3 mlrd. dollar ekvivalentidagi mablag'lar uy-joy va kommunal xo'jaligi sohalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bundan tashqari, ta'lim, sog'liqni saqlash, telekommunikatsiya va boshqa sohalar uchun ham tashqi qarz hisobidan 1,1 mlrd. AQSH dollari ekvivalentida mablag'lar jalb yo'naltirilgan.

Davlat ichki qarzi qoldig'i 2022 yilda 599,4 mln. AQSh dollarga ko'payib, 2023 yilning 1 yanvar holatiga 3,3 mlrd. AQSh dollarni (2021 yil yakunida 2 729,1 mln. AQSh dollari) yoki YaIMga nisbatan 4,1 foizni tashkil etdi.

Shundan: - Davlat qimmatli qog'ozlari - 13,0 trln. so'm;

- Davlat kafolatlagan va ichki majburiyatlar bo'yicha davlat byudjetidan qaytariladigan qarz – 2,16 mlrd. AQSh dollar.

O'zbekiston Respublikasining "2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq: O'zbekiston Respublikasi nomidan va O'zbekiston Respublikasining kafolati ostida jalb qilingan davlat qarzining summasi yalpi ichki mahsulotning yillik prognoz ko'rsatkichiga nisbatan 60 foizdan oshmasligi; 2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasi nomidan va O'zbekiston Respublikasining kafolati ostida ichki va tashqi qarzlarni jalb qilish bo'yicha yillik imzolanadigan yangi bitimlarning cheklangan sof hajmi 5,5 mlrd. AQSh dollari (shu jumladan, davlat qimmatli qog'ozlari – 5 trln. so'm) miqdorida belgilandi. 2021 yil davomida yangi imzolangan davlat tashqi qarz bitimlarining hajmi 4,9 mlrd. AQSh dollarini hamda Davlat byudjetini moliyalashtirish uchun chiqarilgan davlat qimmatli qog'ozlarining sof hajmi 4,1 trln. so'mni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasining "2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni bilan 2022 yil davomida O'zbekiston Respublikasi nomidan yoki O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida tashqi qarzni jalb etish bo'yicha imzolanadigan yangi shartnomalarning chegaralangan hajmi 4,5 mlrd. AQSh dollari miqdorida hamda O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqariladigan davlat qimmatli qog'ozlarining cheklangan sof hajmi 12,0 trln so'm miqdorida belgilandi. 2022 yil davomida umumiy qiymati 4,5 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi 23 ta (shundan, davlat byudjetini qo'llab-quvvatlash – 2,5 mlrd. AQSh dollari) yangi davlat tashqi qarz bitimlari imzolandi hamda Davlat byudjetini moliyalashtirish uchun sof hajmi 12,0 trln. so'm bo'lgan davlat qimmatli qog'ozlari chiqarildi.

O'zbekiston Respublikasining "2023 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq: 2023 yil uchun O'zbekiston Respublikasi nomidan va O'zbekiston Respublikasining kafolati ostida tashqi qarzlarni jalb qilish bo'yicha yillik imzolanadigan yangi bitimlarning cheklangan hajmi 4,5 mlrd AQSh dollari miqdorida; 2023 yil uchun O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqariladigan davlat qimmatli qog'ozlarining cheklangan sof hajmi 17,0 trln so'm miqdorida belgilandi.

2021 yildan ichki majburiyatlar bo'yicha davlat kafolatlarini berish amaliyoti to'xtatildi hamda davlat korxonalari va banklari o'z loyihalarini moliyalashtirish uchun, transformatsiya jarayonlariga muvofiq, jahon moliya bozorlarida davlat kafolatisiz mablag' jalb qilishga o'tkazilmoqda.

Bundan tashqari, davlat qarzini jalb qilish va ishlatilishi borasida shaffoflikni ta'minlash choralari ko'rilmoqda. Xususan, davlat qarzi hisobidan

moliyalashtirilgan va yakunlangan barcha loyihalar majburiy tartibda Hisob palatasi tomonidan auditdan o'tkazilishi hamda Qonunchilik palatasi deputatlari ishtirokida muhokama qilib borilishi yo'lga qo'yiladi.

Yana bir e'tiborli jihati shundaki, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Osiyo taraqqiyot banki hamda AQSH g'aznachiligi bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasining «Davlat qarzi to'g'risida»gi qonuni loyihasi ishlab chiqilib, Qonunchilik palatasida deputatlar muhokamasiga kiritilishi kutilmoqda. Bu qonun loyihasida davlat ichki va tashqi qarzlarning tasnifi, davlat boshqaruvi organlarining davlat qarzini jalb qilish va ularni boshqarish sohasidagi vakolatlari, davlat korxonalarini tomonidan qarz mablag'larini jalb qilish, davlat qarzi bo'yicha limitlar hamda ularni o'rnatish qoidalari, shartli majburiyatlarni boshqarish, davlat qarziga o'z vaqtida va to'liq xizmat ko'rsatilishi hamda uni boshqarishda shaffoflik va ma'lumotlar ochiqligini ta'minlash kabi masalalar aks etgan.

Qisqacha qilib aytganda, davlat ichki va tashqi qarzi masalasida O'zbekiston jiddiy muammolarga to'qnash kelmaganligi, eng avvalo, Yurtboshimizning uzoqni ko'zlab olib borayotgan iqtisodiy siyosatining mahsulidir. Davlat qarzini boshqarishning milliy strategiyasida belgilangan vazifalar Prezidentimiz tomonidan 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan "taraqqiyot strategiyasi"da belgilangan vazifalar bilan hamohang bo'lib, unda tashqi qarz portfelini optimallashtirish va ichki qarz bozorini rivojlantirish evaziga ichki mablag'larni iqtisodiyotning eng ustuvor yo'nalishlari hamda dolzarb loyihalariga qaratish strategik ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Н.Х.Хайдаров. Роль иностранных инвестиций в финансовом оздоровлении Узбекистана. Финансы и кредит, 2001
2. Nizamiddin Khaydarov. Agricultural Development in Uzbekistan: Agricultural Reforms versus Transboundary Water Issues. Developing Country Studies [www. iiste. org](http://www.iiste.org). ISSN. 2015
3. Ҳайдаров Н.Х. Молия: умумдавлат молияси. Т.: Иқтисод-молия, 2009
4. Т.Маликов, Н.Хайдаров. Давлат бюджети. Т.: "ИQTISOD-MOLIYA", 2007
5. Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g, Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o'g'li, Kamolov Maqsudjon Murodullo o'gli. Davlat xaridlarini tashkil

etishda korrupsiyaga qarshi kurash. Journal of Universal Science Research, 2023/9/22

6. Samadov Ortiq, Muzaffarov Mukhammadjon. Analysis of the Participation of the Republic of Uzbekistan in the Processes of International Economic Integration. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 2023/5/13

7. Muhammadjon Muzaffarov. Davlat xaridlarini tashkil etish shakllarining o'ziga xos xususiyatlari. Science and Education, 2022/12/31

8. O'roqov Uchqun Yunusovich, Moyliyev Murod Baxtiyorovich, Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o'g'li. Mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirish orqalixalqaro kapitalni jalb qilish masalalari. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 June 2022 / Volume 3 Issue 6

9. Urokov Uchkun Yunusovich, Toshmatova Rano Gaipovna, Sharapova Mashhura Azadovna, Ismailova Nasiba Komiljonovna, Isaev Husan Mansurovich. MATTERS OF REVENUE GENERATION AND COST OPTIMIZATION WHILE INCREASING THE EFFICIENCY OF THE STATE BUDGET. Journal of Hunan University (Natural Sciences) Vol 2021

10. УЮ Уроков, КР Чинкулов. Узбекистонда давлат харидларининг такомиллашувининг ҳуқуқий асослари. Халқаро молия ва ҳисоб» журнали, 2017

11. Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g, O'sarov Javohir Bahodir o'g. AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING KORPORATIV MOLIVAVIY STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 2023

12. У.А. Ортиков Ойбек Ҳамлетов. ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ОБОСНОВАНИЕ КОНЦЕПЦИИ ЭКО-INNOVACIY OSNOVY I OPYT VEDUSHCHIH STRAN. «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ» 2023/06/03

13. Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g'li, Xasanov Jaxongir Jamshidovich. KORXONA RESURSLARINI BOSHQARISH TIZIMI (ERP) ORQALI BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH. World of Science, 2023

14. Улуғбек Ортиқов, Жаҳонмирзо Мирзахалимов. КОРХОНАЛАРДА ХОДИМЛАРНИ БОШҚАРИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ УСУЛЛАРИ. Академические исследования в современной науке, 2023

15. УА Ортиков, СИ Кўчқоров. ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ОБОСНОВАНИЕ КОНЦЕПЦИИ ЭКО-INNOVACIY OSNOVY I OPYT VEDUSHCHIH STRAN. оности образования: исследование в XXI веке, 2023

16. Улуғбек Ортиқов, Суннат Эсанбеков. КОРПОРАТИВ БОШҚАРУВ ТИЗИМИНИ ЎЗБЕКИСТОНДА ҚЎЛЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education, 2023
17. Ulug‘bek Ortiqov, Yulduz Nasimova. RISKNI BARATARAF ETISHDA B2B BIZNES MODELINI QO‘LLASH MEKANIZMLARI. Наука и инновация, 2023
18. Ulug‘bek Ortiqov, Ismoil Ismoilov. RAQAMLI IQTISODIYOTNI JORIY ETISH SHAROITIDA KORXONALAR MOLIYAVIY HOLATINI TAHLIL ETISH. Наука и инновация, 2023
19. Sharifov Umid Ashur o‘g‘li Ortiqov Ulug‘bek Akrombek o‘g‘liBYUDJET IJROSINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI. «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». Выпуск №10
20. Namozov Feruzbek Ashurovich Ortiqov Ulug‘bek Akrombek o‘g‘li. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MOLIYA BOZORLARIDA UCHRAYOTGAN MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH. «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ» УДК 37 ББК 94
21. Ортиқов У.А. Жиянова Н.Э. СОЛИҚ ТИЗИМИНИНГ ЖАХОН ТАЖРИБАСИ ВА УНИ ЎЗБЕКИСТОН АМАЛИЁТИДА ҚЎЛЛАШ ИМКОНИЯТЛАРИ. ИННОВАЦИИ В ЭКОНОМИКЕ, 2020
22. УА Артиқов, НЕ Джиянова. ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. ББК У. Ят31+ ЧЗ4Я431 А 43
23. Azamat Ostonokulov. Improvement of methodology for accounting of extra-budgetary resources of public educational and medical institutions. E3S Web Conf. Volume 296, 2021 Management and Green Technologies (ESMG21)
24. ВК Hamdamov, AA Ostonokulov, Byudjet nazorati. O'quv qo'llanma. T.: "Iqtisod-Moliya", -318 b
25. O'roqov Uchqun Yunusovich, Moyliyev Murod. "Baxtiyorovich, Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o'g'li." Mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirish orqali.
26. Muhammadjon Muzaffarov. Davlat xaridlarini tashkil etish shakllarining o'ziga xos xususiyatlari. Science and Education, 2022/12/31
27. Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o'g'li, Ortiqov Ulug‘bek Akrombek o‘g, Mavlonov Doston Mavlon o‘g‘li. INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINING O‘RNI VA AHAMIYATI, World of Science 2023/10/4